

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

OLIIY TA‘LIM TIZIMIDA YETUK MUTAXASSIS KARDLARNI TAYYORLASH VA UNING ISTIQBOLLARI

Jamshid YUSUBOV,

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

jamshid_yusubov@mail.ru 97-701-10-87,

Sevinch MUSTAFAEVA,

*O‘zMU Milliy g‘oya, manaviyat asoslari va
huquq ta‘limi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta‘lim tizimida yetuk mutaxassis kardlarni tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar va uning istiqbollari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlari: oliy ta‘lim, kadr, pedagog kadr, islohot, ta‘lim sifati.

PREPARATION OF MATURE SPECIALISTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM AND ITS PROSPECTS

Abstract This article discusses the reforms, innovations, and prospects for training highly qualified specialists in the higher education system.

Key words: higher education, personnel, teaching staff, reform, quality of education.

ПОДГОТОВКА ВЫСШИХ СПЕЦИАЛИСТОВ И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье представлено мнение о реформах, обновлениях и ее перспективах в системе высшего образования в части подготовки передовых специалистов.

Ключевые слова: высшее образование, кадры, профессорско-преподавательский состав, реформа, качество образования.

Kirish. Bugungi kunda dars mashg‘ulotlarini yangi pedagogik texnologiya va innovatsion usullar bilan o‘tkazish davr talabi hisoblanadi. Bugungi zamon o‘quvchilarining bilim olishi uchun avvalgi an‘anaviy dars mashg‘ulotlari yangilik emas. Hozirgi texnika va texnologiyalar davrida an‘anaviy dars mashg‘ulotlari tinglovchining e‘tiborini tortmaydi. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizga ayniqsa, ta‘lim sohasiga zamon bn uyg‘unlashgan davr talablariga “labbay” deb javob bera oladigan pedagogik kadrlar kerak. Ta‘limdagi rivojlanish

va taraqqiyotning asosi sifatida Prezidentimizning ta’limga oid bir qancha Qaror va Farmonlarini ko’rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi PQ-289-sonli qarori “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”¹³⁶gi qonun misolida ko’rishimiz mumkin. Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg’or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko’tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg’unligini ta’minlash qonunning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to’g’risida” 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son [Farmoni](#)¹³⁷ ijrosini ta’minlash hamda oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko’nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to’ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta’minlashdan iborat. Ta’lim jarayonida talabalarning sifatli ta’lim olishini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to’g’risida” O’RQ-637 sonli Qarorining¹³⁸ 13-moddasida: Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo’lgan yo’nalishlar bo’yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo’shimcha kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta’minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko’nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta’lim talablari bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmonida¹³⁹, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo’nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga

¹³⁶O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-289-sonli Qarori

¹³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to’g’risida”gi PF-5789-son [Farmoni](#)

¹³⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to’g’risida” O’RQ-637-sonli Qarori

¹³⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni

asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadlari ilgari surildi.

Dars shakliga innovatsiyaning kirib kelishini standart, nostandart, virtual dars shakllari misolida ko‘rishimiz mumkin. O‘qitish turlaridagi innovatsiyani quyidagi turlari mavjud:¹⁴⁰ muammoli ta‘lim, evristik ta‘lim, darajalangan ta‘lim, integratsiyalangan ta‘lim, interfaol ta‘lim, informal ta‘lim, rasmiy ta‘lim, norasmiy ta‘lim. E.Denison tadqiqotlariga ko‘ra, ishchi kuchining sifatini oshirishga ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy omil ta‘lim tizimining rivojlanishi sanalsa ¹⁴¹, P.Drakerning fikricha, hozirgi kunda “bilimlar kapital va ishchi kuchini chetga surib, ishlab chiqarishning yetakchi omiliga aylanmoqda” ¹⁴². Iqtisodchi olimlar M.V.Boguslavskiy va Y.V. Neborskiyning fikricha, ta‘limning globallashuvi, siyosiy risklar, resurslar muammosi, markaz va chekka hududlar o‘rtasidagi nomutanosiblik, byurokratiya va samarali boshqaruvning yo‘qligi kabi eng muhim muammolarni hisobga olmay turib, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish kontseptsiyasini tuzib bo‘lmaydi¹⁴³. L.Vlaskin va L.Grinbergning ilmiy izlanishlarida oliy ta‘limning sifati ko‘p qirrali, ko‘p darajali hamda dinamik tushuncha bo‘lib, u ta‘lim modelining mazmuniy birligiga, muassasaning missiya va vazifalariga hamda o‘ziga xos ma‘lum standartlarga bog‘liqdir deb ta‘kidlanadi¹⁴⁴.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizning ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, shuningdek ta‘lim tizimi, jumladan oliy ta‘lim tizimida tub islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ta‘lim sohasini rivojlantirish, uni jahon andozalariga mos ravishda isloh qilish, bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 4-bobi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”ga qaratilgan bo‘lib, unda oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish, oliy ta‘lim muassasalariga qamrov darajasini oshirish, oliy ta‘lim muassasalarini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun tegishli choratadbirlarni amalga oshirish, har bir hududda nodavlat oliy ta‘lim muassasalari sonini kengaytirish masalalariga e‘tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida ta‘kidlaganidek, “...birinchi navbatda, e‘tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta‘limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz. “Najot – ta‘limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli

¹⁴⁰ X.M.Eshpo‘latova “Ta‘limda innovatsion texnologiyalarning turlari va ahamiyati” maqola 2022, 31-bet

¹⁴¹ Дракер П. Посткапиталистическое общество // Ж. Экономика XXI века. – М., 1999, № 11. – С. 3-4

¹⁴² Богуславский, М.В. Перспективы развития системы Высшего образования в России / М.В. Богуславский, Е.В. Неборский [Электронный ресурс] // Интернетжурнал «Науковедение». - 2015. - Т.7. - №3. - С. 139. - Режим доступа: <http://naukovedenie.ru/PDF/111PVN315.pdf>.

¹⁴³ Lazar Vlasceanu, Laura Griinberg, and Dan Parlea. (2004). Quality Assurance and Accreditation: A Glossary of Basic Terms and Definitions. Bucharest: UNESCO [ISBN 92- 9069-178-6].

¹⁴⁴ Каримов А.А., Перегудов Л.В. Основы системы мониторинга и управления качеством высшего образования. – Т., 2003. Стр. 46.; Саидов М. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти. – Т.: 2002. Б. 51

erishiladi”¹⁴⁵. Shu jihatdan, o‘zgarayotgan O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa hisoblanadi. Jumladan, BMTning 2030-yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida ta’kidlanganidek, oliy ta’lim jahonda barqaror iqtisodiy o‘rta o‘rta sishning yetakchi omiliga aylanmoqda. Shu tufayli keyingi yillarda yuqori malakali kadrlar tayyorlash sur’ati jahonda saqlanib, 2030-yilga borib, oliy o‘quv yurtlari talabalarining prognoz soni 414 million kishiga yetadi va u 2000 yilga nisbatan 4,2 barobarga ko‘pdir¹⁴⁶. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, shu bilan birga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish va bu orqali kadrlar tayyorlash sifatiga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimini va ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirish, oliy ta’lim menejmenti bo‘yicha iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o‘zlarining ilmiy-tadqiqotlarida turli qarashlar va fikrlar keltirib o‘tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotda ilmiy tahlilning tizimli, tarkibiy-funksional, statistik, qiyosiy va sotsiologik usullaridan foydalanilgan holda tahlillar asosida ochib berishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–5847-son farmoni imzolangan bo‘lib, unga asosan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi tasdiqlandi. Konseptsiyaga muvofiq oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar belgilandi. Jumladan: oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish, oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash.

Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida 2024-yilda qabul qilingan va ta’lim sifatini ko‘tarishga qaratilgan "Oliy ta’lim sifatini oshirish va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish to‘g‘risida"gi qaror qabul qilindi. Uning asosiy jihatlarini yangi universitetlar ochilishida masalan, 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab Toshkentda Amerika Texnologiyalar Universiteti

¹⁴⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь

¹⁴⁶ Marshall A. Principles of Economics. London: Macmillan. 1890.

ochilishi, bu universitetda muhandislik, arxitektura, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot, moliya kabi yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlanadi. Bitiruvchilarga xalqaro darajadagi diplomlar berilishini misol qilsak bo‘ladi. Yana bir muhim jihat ta‘lim sifati va xalqaro hamkorlik bo‘lib, unda xalqaro o‘quv dasturlarini tatbiq etish va O‘zbekistonda xorijiy tajribani joriy qilish bo‘yicha faoliyat olib borilmoqda. Yangi ta‘lim dasturlari orqali talabalarning amaliyotga yo‘naltirilgan bilim olishi ta‘minlanadi.

Oliy ta‘lim tizimida islohotlarni jadallashtirish uchun ishlab chiqilgan yana bir muhim hujjatlardan biri — "Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida" qaror bo‘lib, 2024-yil 20-yanvarda qabul qilingan. Ushbu qaror talabalar va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, madaniy meros obyektlariga turistik tashriflar va boshqa faolliklarni qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilgan ¹⁴⁷.

“Oliy ta‘lim sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida” qarori O‘zbekiston Prezidentining 2024-yilda qabul qilgan muhim farmonlaridan biridir. Ushbu qarorning asosiy maqsadi O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali ta‘lim sifatini oshirishdir. Qarorning asosiy jihatlari xalqaro hamkorlikni barqarorlashtirish, ta‘lim sifatini oshirish hamda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun qo‘shimcha moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yilgan ¹⁴⁸.

2023/2024-o‘quv yilidan boshlab, davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari faqat davlat granti bo‘yicha tasdiqlanishi belgilandi. To‘lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlari bo‘ysunuvi bo‘yicha tegishli vazirlik (idora) tomonidan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar ta‘lim vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun ariza topshirish raqamlashtirildi va abituriyentlardan qo‘shimcha hujjatlar talab etish amaliyoti bekor qilindi. Bakalavriat abituriyentlariga bir vaqtning o‘zida 5 tagacha ta‘lim shaklida hamda ta‘lim yo‘nalishini tanlash imkoniyati berildi. Davlat oliy ta‘lim muassasalari magistraturasiga qabul abituriyentning bakalavriat diplom bali o‘rtacha ko‘rsatkichi asosida amalga oshirilishi hamda qo‘shimcha imtihon o‘tkazilmasligi, qabul bir yilda ikki marta - avgust va yanvar oylarida tashkil etilishi belgilandi.

Oliy ma‘lumotli kadrlarga ehtiyoj yuqori bo‘lgan olis, chekka va tog‘li hududlarda joylashgan umumta‘lim maktablari uchun maqsadli qabul ko‘rsatkichlari belgilandi. Chet el fuqarolarini oliy ta‘lim muassasasi tomonidan o‘tkaziladigan suhbat natijasiga ko‘ra o‘qishga qabul qilish joriy etildi. Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasining tavsiyanomasini olgan, oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta‘lim shakli bo‘yicha

¹⁴⁷ "Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida" qaror, 20.01.2024

¹⁴⁸ "Oliy ta‘lim sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida" Prezident qarori

umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul parametrlariga qo‘shimcha 2000 ta davlat granti ajratilishi yo‘lga qo‘yildi. Davlat oliy ta‘lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to‘lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt miqdori davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilandi.

Oliy ta‘limdagi islohotlar bo‘yicha O‘zbekistonda bir qator yangi qaror va farmonlar qabul qilindi. Ular oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, talabalarni qabul qilish jarayonini takomillashtirish va davlat tomonidan moliyalashtirilgan grantlarni tabaqalashtirilgan tartibda taqsimlash kabi sohalarni qamrab oladi. “Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida davlat buyurtmasi va maqsadli qabul kvotalari haqida gap boradi. Bunda talabalarni maqsadli qabul qilish bo‘yicha yangi tizim joriy qilindi. Hududlardagi ehtiyojga qarab, abituriyentlar tanlov asosida qabul qilinadi va maqsadli qabul kvotalari ajratiladi. Bu tizimda talaba, hokimiyat, oliy ta‘lim muassasasi va boshqa tashkilotlar o‘rtasida shartnoma tuziladi, bunda talabaning o‘qishni tugatgach, belgilangan hududda ishlashi majburiy monitoring qilinadi ¹⁴⁹. Grantlar va kontrakt tizimiga keladigan bo‘lsak, grant va kontrakt asosida o‘qishga qabul qilishning minimal o‘tish ballari belgilanadi, va grantlarni qayta taqsimlash tizimi kiritildi. Birinchi kursda davlat buyurtmasi kvotasiga muvofiq grantlar taqsimlanadi, keyingi kurslarda esa faqat yuqori ko‘rsatkichlarga ega talabalar grant olish huquqiga ega bo‘ladi. Imtihon va qabul tizimida 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab oliy ta‘limga kirish imtihonlari yangi tizim asosida amalga oshiriladi. Abituriyentlar dastlab test sinovida qatnashib, so‘ngra o‘z ballariga ko‘ra ta‘lim muassasasini tanlashadi. Bu jarayonda kasbiy va ijodiy imtihonlar ham mavjud bo‘lishi belgilandi ¹⁵⁰. Ta‘lim sifatini oshirishda esa oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta‘lim muassasalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish, oliy ta‘lim sohasini raqamlashtirish va xalqaro darajaga moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Yetakchi oliy ta‘lim muassasalari xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qilish orqali xalqaro reytinglarda o‘z o‘rnini mustahkamlashga harakat qilmoqda.

Bu islohotlar O‘zbekistonda oliy ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, yoshlarning oliy ma‘lumot olish imkoniyatlarini kengaytirishga va ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va uning istiqbollari quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin.

- Birinchidan, universitetlar sonining ortishi: Yangi xususiy va xorijiy oliy o‘quv yurtlari ochilmoqda, ta‘limga kirish imkoniyatlari kengaymoqda.

- Ikkinchidan, ta‘lim sifatining oshishi: Xalqaro standartlarga mos dasturlar, reyting tizimlari joriy qilinmoqda, o‘qituvchilar malakasi oshirilmoqda.

¹⁴⁹ “Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 25.05.2024

¹⁵⁰ <https://president.uz/oz/lists/view/7256>

- Uchunchidan, masofaviy ta'lim rivoji: Pandemiya keyin onlayn ta'lim tizimi keng qo'llanilmoqda, bu chekka hududlar uchun qulay.
 - To'rtinchidan, amaliyot va ta'lim integratsiyasi: Talabalarning amaliyoti kengaytirilmoqda, sanoat bilan hamkorlik rivojlanmoqda.
 - Beshinchidan, ilm-fan va innovatsiyalar: Ilmiy-texnologik markazlar ochilmoqda, grantlar va ilmiy tadqiqotlar qo'llab-quvvatlanmoqda.
 - Oltinchidan, qabul tizimi shaffoflashmoqda: Test jarayonlari oshkoraligi ta'minlanmoqda, texnologiyalar joriy qilinmoqda.
- Yuqorida sanab o'tilgan ishlarning barchasida oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning istiqbollari ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son [Farmoni](#)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni
5. X.M.Eshpo'latova "Ta'limda innovatsion texnologiyalarning turlari va ahamiyati" maqola 2022, 31-bet
6. Дракер П. Посткапиталистическое общество // Ж. Экономика XXI века. – М., 1999, № 11. – С. 3-4
7. Богуславский, М.В. Перспективы развития системы Высшего образования в России / М.В. Богуславский, Е.В. Неборский [Электронный ресурс] // Интернетжурнал «Науковедение». - 2015. - Т.7. - №3. - С. 139. - Режим доступа: <http://naukovedenie.ru/PDF/111PVN315.pdf>.
8. Lazar Vlasceanu, Laura Griinberg, and Dan Parlea. (2004). Quality Assurance and Accreditation: A Glossary of Basic Terms and Definitions. Bucharest: UNESCO [ISBN 92-9069-178-6].
9. Каримов А.А., Перегудов Л.В. Основы системы мониторинга и управления качеством высшего образования. – Т., 2003. Стр. 46.; Саидов М. Олий таълим менежменти ва иқтисодиёти. – Т.: 2002. Б. 51
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаатномаси. 2022 йил 20 декабрь

11. Marshall A. Principles of Economics. London: Macmillan. 1890.

12. "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish to'g'risida" qaror, 20.01.2024

13. "Oliy ta'lim sifatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida" Prezident qarori

14. "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 25.05.2024